

O'ZBEKISTONDA CHET TILLARINI O'QITISHDA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Xusainboyeva Robiya Xo'jaboyevna

Ma'mun Universiteti, Filologiya va tillarni
o'qitish fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi yoshlarning e'toborini chet tillarini o'rganishga, vaqtlarini unumli o'tkazishga va mamlakatimiz tomonida berilayotgan imkoniyatlarga munosib ravishda oqilona javob qaytarishga undashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: chet tillari, o'quv kurslar, ta'lim tizimi, zamonaviy texnologiyalar, darsliklar, milliy sertifikat, pedagogik faoliyat.

Til so'zlashish va butun dunyo insonlarining bir-birlari bilan aloqada bo'lishlari va millatlararo iliq munosabatlarni o'rnatishning asosiy vositasidir. Hozirgi kunda ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Prezidentimizning ta'lim tizimi to'g'risidagi bir necha qonunlari joriy qilindi. Ayniqsa, Prezidentimizning talabalarga qulayliklar yaratish, ularga turar joy tashkil qilish va qiyinchiliklarni osonlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlari talabalarning g'ayratiga g'ayrat, shijoatiga shijoat qo'shib, yuzlariga tabassum olib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarga "Chet el mamlakatlari ta'lim tizimi"dan o'zgacha uslubdagi yangiliklar kiritildi. Maktablarda "Chuqurlashtirilgan fanlar" o'qitila boshlandi. Yangi maktablar qurilib, zamonaviy uslubda jihozlandi. Fanlar bo'yicha o'quv kurslar ochilib, bolalar uchun to'garaklar tashkil qilindi. Bu yosh avlod uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Farzandlarimiz bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib, o'z ustilarida ishlab, chet davlatlarda malakali tahsil olib, aql va idroklarini o'stirib, o'zlaridan professional kasb egalarini tayyorlashmoqda.

Faktlarga qaraganda, dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud bo'lib, til jamiyat negizi hisoblanar ekan. Chunki har bir davlatning tili o'zi uchun aziz va muqaddasdir. Til davlatning bosh bo'g'inidir, shu bilan birga "Til bilgan el biladi",- deb ham bejizga aytishmagan ota-bobolarimiz. Tili va madaniyati boshqa bo'lgan insonlar bilan tanishish, ular bilan do'stlashish, fikr-mulohazalar va bilim almashish suv tagidan oltin topish bilan tengdir. Oltin esa jamiyatni yanada boy bo'lishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda ham aynan til o'rganish, farzandlarni tilga qiziqtirish zamon talabiga aylandi desak xato bo'lmaydi. Shuni aytish lozimki, tillar orasida ingliz tili, rus tili, fransuz tili, Italian, nemis va yapon tillarini o'zlashtirish boshqa tillarga nisbatan ko'proq amalga oshmoqda. Ayniqsa, ingliz tili hozirgi kunda ko'plab davlatlarning rasmiy tiliga yoki ikkinchi tiliga aylanib, eng ko'p insonlarni o'ziga qaratishga ulgurdi. Chunki bu tilning zarralari butun dunyo

ko'chalari-yu, shaharlari tomon sachradi. Agar bu tilni bilsangiz istagan davlatingizda muloqot qila olasiz va ishga joylashishingiz ham mumkin bo'ladi. Zamonaviy dunyoda ingliz tili boshqa tillarga nisbatan turli mamlakatlarda yashovchi insonlar tomonidan eng ko'p qo'llanilib kelinayotgan til sifatida birinchi ekanligi barchaga ma'lum. Ingliz tilini xalqaro til maqomiga olib chiqqan bir qancha omillar mavjud. Masalan, ko'plab dori-darmon nomlari va ularning qo'llanilish usullari, internetdagi ko'plab ma'lumotlar, aynan shu tilda yozilgan. U bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, ilm-fan, biznes, meditsina, ta'lim, ilmiy izlanishlar, jurnalistika va texnologiya kabi sohalarda yetakchi ro'l o'ynaydigan til hisoblanadi. Yangi davrda har bir soha vakillariga yangicha vazifalar va ma'suliyatlarni yukladi. Zamonaviy texnologiyalar sababli ingliz tilini o'qitish metodlari sezilarli darajada o'zgardi. Bundantashqari, televideniya ham ko'pgina telekanallarda bolalar uchun ingliz tilini o'rgatish uchun multfilmlar, ko'ngilochar ko'rsatuvlar uzluksiz ravishda qo'yib borilmoqda. Bu bolalar uchun til bilan tanishish, hech bo'lmaganda boshlang'ich ko'nikmalarni olishga yordam beradi. Texnologiyalar asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallamoqda.

Tilni hech qanday so'zlarni yodlamasdan, oson va tez o'rganish uchun "Booknomy" nomi ostida kitoblar nashr qilinyapti. Bu til o'rganish jarayonini yanada qiziq va tushunarli qilishga yordam bermoqda. Bu ham zamonaviy metodlardan biridir. Tilni mukammal o'rganishni istagan har bir inson faqatgina gramatika yoki so'z yodlash bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Chunki biror tilni bilishingizni isbotlamoqchi bo'lsangiz, albatta o'sha tilda gaplasha olishingiz va muloqot qilayotgan kishingizning so'zlarini tushuna olishingiz darkor. Shundagina til to'laqonli o'rganilgan bo'ladi. Buning uchun siz avvalo shu til bilan bog'liq filmlarni tomosha qilishingiz, musiqalarini tinglashingiz, agar iloji bo'lsa shu millatga mansub ya'ni tilda bemalol gaplasha oladigan do'stlar topishingiz maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ta'lim jarayonida darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nega biz 1-sinfdan boshlab ingliz tilini o'rganamiz-u, lekin hali ham muloqot qila olmaymiz? Axir, 11 yil tilni o'qigan inson albatta uni mukammal bilishi kerak. Lekin afsuski bunday emas. Tilni o'rganishni istagan inson qo'shimcha pul to'lab kurslarga boradi. Va qarabsizki, ikki yilni ichida tilda bemalol gapira oladi. Buning asosiy sababi nimada? Dastlabki sabablardan biri darsliklarning mukammal emasligida edi. Ingliz tili kitoblari ko'proq gramatikani o'rgatishga qaratilgan, gapirish va eshitishni rivojlantirish uchun deyarli mashqlar yo'q edi. Ammo Prezidentimizning chet tillarini o'rganish va o'rgatishga qaratgan alohida e'tiborlari tufayli shu yili Ingliz

tili darsliklari yangilandi. Darsliklar juda qiziqarli, tilning hamma tomonlarini shakllantirishga to'liq e'tibor qaratilgan. Kitob ichidan qiziqarli rasmlar va o'yinlar ham joy olgan. O'quvchining yolg'iz o'zi o'tirib mavzuni tushuna oladigan darajada sodda va ravon tilda yozilgan. Bu kitob bollalarda tilni o'rganish uchun qiziqishni ham ko'paytiradi. Yana bir sabablaridan biri o'quvchilar tilni faqatgina shu til o'qutuvchisi bo'lish uchun kerak deb o'ylashlarida edi. Lekin dunyo tobora globallashib borayotgan bu davrda ikki tilni bilish shunchaki qiziqish emas, davr talabi ekanligi siz-u bizga sir emas. Chet tilini o'rganishning foydali tomonlari juda ko'p. Til bilgan insonning chet davlatlarda yashash va ishlash yoki o'qish imkoniyatlarini oshiradi. Tabiiyki, dunyo ko'rgan insonning fikrlash doirasi juda keng bo'ladi. U har bir masalaga o'zgacha ijodiy yondashadi. Yana til bilgan inson boshqa millat vakillarining madaniyatlari va turmush tarzi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan buyruq va takliflar samarasida hozirgi kunda yurtimizda 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmqda. 2016-yilda ular bor yo'g'i 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshdi. Bu so'nggi yillarda erishilgan eng katta yutuqlardan biridir. Barcha mamlakatlar singari O'zbekiston ham davlatning kelajagi bu yoshlar deb hisoblaydi. Shuning uchun ham "Kelajak yoshlar qo'lida" deyishadi. Agar hozir biz ta'lim-tarbiya olsak, kelajakda farzandlarimiz ham bizdan o'rnak olishadi. Oldimizda shuncha porloq nur bor ekan tezroq yo'limizni yoritaylik! Olgan bilimlarimiz tufayli biz yaxshini yomondan ajratamiz, tunni kunga, zulmni adolatga, dangasalikni mehnatga, noshukurlikni sabrga aylantirishimiz mumkin. Eng muhimi til o'rganish jarayonida biz o'zligimizni topamiz va aslo yo'qotmaymiz. Kelajakdagi maqsad va orzularga erishish uchun qo'shimcha imkoniyatlar kaliti bo'lib xizmat qiladi. Qat'iyat esa mashaqqat va sinovlarga qaramasdan muvaffaqiyatga erishish uchun bizga yordam beradi. Qat'iy irodaning asosi esa sabrli bo'lish va mehnat qilishdan to'xtamaslikdir. Albatta chet tillarini o'rganish oson ish emas. Inson o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotmaslidi darkor. "Ucha olishingga shubha qilgan mahaling sen bu imkoniyatni bir umrga qo'ldan boy berasan". Shu sababli ham til o'rganishni hozirdan boshlang. Chunki, ilmolihsning erta kechi yo'q. Olg'a tengdoshim!

Chet tilini bilishimiz nafaqat o'zimizga balki jonajon yurtimizga ham foyda keltiradi. Yillar davomida mamlakatimiz jahon standartlariga munosib bo'lish uchun tez suratlarda rivojlanmoqda. U jahonda maqtansa arzigulik binolar qurmoqda, ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda va shu bilan birga uning bayrog'ini yuksaklarga ko'taruvchi yoshlarni tarbiyalamoqda. Prezidentimiz aytganidek chet tillarini bilish

bizga jahon eshiklarini ochadi. Rahbarimiz xorijiy tillarni bilgan kasb egalariga qo'shimcha qulayliklar berdi. Jumladan: ingliz tili o'qituvchilarining oylik maoshiga 50% qo'shimcha miqdor berilishi joriy qilindi. Bu o'qituvchilarda o'z kasbiga bo'lgan faxr tuyg'usini oshirdi. 2022-yil Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev imzolagan qarorlariga binoan 2022-yilning o'quv yilidan boshlab chet tillari fanidan dars beradigan har bir o'qituvchida xalqaro yoki milliy sertifikat bo'lishi shart deb belgilandi. Shu qarorga muvofiq o'qituvchilar hamda barcha bo'lajak pedagoglar o'z bilimini yanada mustahkamlab sertifikat qo'lga kiritish uchun tayyorlanishmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadal suratlar bilan rivojlanib boryotgan zamonda yashar ekanmiz biz ham shu zamonga mos va xos bo'lishimiz kerak. Bizni boshqa bolalardan nima farqimiz yoki kamchiligimiz bor? Inson qilgan ishni albatta boshqa inson ham qila oladi. To'g'ri, til o'rganish mushkul ish bo'lishi mumkin. Ammo shu bilan birga bu juda zavqli mashg'ulot. O'zingiz o'ylab ko'ring qo'shimcha bir tilni bilsangiz davlatlararo sayohat qilishingiz, biror davlat oliygohida taxsil olishingiz, ishlashingiz va eng muhimi komil inson darajasiga chiqishingiz mumkin. Shu bilan birga sizga til o'rganishingiz uchun qulayliklar yaratib bergan jannatmakon yurtingizning mavqeyini yanada yuksakroqqa ko'tarish imkoni bo'ladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumayeva, M. B., & Yusupov, O. Y. (2023). USING DIFFERENT GAMES AND SONGS IN TEACHING ENGLISH TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 107-111.
2. Jumayeva, M. B. (2022). OLIY TA'LIMDA INNOVATSION USUL VA VOSITALAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
3. Jumayeva, M., & Turdiyeva, U. (2022). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LEARNING ENGLISH. Science and innovation, 1(B8), 1710-1714.
4. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
5. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсбилизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
6. Ахмедова, Н. М. (2017). В помощь арифметике. Молодой ученый, (4-2), 14-15.